

BIOLOGIK KONTEKSTDA INGLIZ TILIDA MUAMMOLI MULOQOTNI RIVOJLANTIRISH

Anora Erkinova Akbar qizi

Qashqadaryo viloyati Kitob tumani

34-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Tel. raqam: +998885890111, anora95erkinova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisdagi biologik fanlar doirasida ingliz tilida samarali muloqot qilish, ayniqsa muammoli (problem-based) yondashuvlar orqali muloqotni rivojlantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Ilmiy-texnikaviy axborot almashinuvining ko'payib borayotgani biologiya sohasida ingliz tilida to'g'ri va aniq ifodalash zaruratini oshirgan. Tezisdagi biologik kontekstda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha metodik yondashuvlar tahlil qilinadi hamda amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: biologik, muammoli yondashuv, problem-based, ilmiy-texnikaviy, biologik kontekst, ko'nikma, metodik yondashuv.

АННОТАЦИЯ

В данной тезисе рассматривается проблема эффективной коммуникации на английском языке в рамках биологических наук, в частности, развитие коммуникации посредством проблемно-ориентированного подхода. Растущий обмен научной и технической информацией усилил потребность в точном и ясном изложении информации на английском языке в области биологии. В диссертации анализируются методические подходы к формированию коммуникативных навыков в биологическом контексте и даются практические рекомендации.

Ключевые слова: биологический, проблемно-ориентированный подход, проблемно-ориентированный, научно-технический, биологический контекст, навыки, методологический подход.

ANNOTATION

This thesis examines the issue of effective communication in English within the biological sciences, especially the development of communication through problem-based approaches. The increasing exchange of scientific and technical information has increased the need for accurate and clear expression in English in the field of biology. The thesis analyzes methodological approaches to the formation of communication skills in a biological context and provides practical recommendations.

Key words: biological, problem-based approach, problem-based, scientific and technical, biological context, skills, methodological approach.

Darhaqiqat, hozirgi kunda ingliz tili jahon miqyosida keng tarqalayotgan va barcha soha vakillari uchun birdek kerak bo'layotgan tillardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, atrofimizdagi deyarli barcha insonlar kamida ikkita tilda bema'lol gaplasha olishadi. Bu esa til o'rganishga bo'lgan ehtiyojning naqadar katta va dolzarb ekanligini ko'rsatib turadi. Inson qanchalik ko'p tillarda so'zlasha olsa, bu uning hayotida muvaffaqiyatlarga erishishiga turtki bo'lishi aniqdir. Yangi O'zbekistonda ham chet tillariga bo'lgan talab juda yuqori sur'atda o'smoqda. Chet davlatlari bilan bo'layotgan hamkorliklar uchun ham ingliz tili suv va havodek zarur. Turli xil soha vakillari uchun til o'rganish

esa ularning ham oldilariga qo'ygan asosiy maqsadlaridan biriga aylanib bo'ldi. Xususan, talabalar orasida biologiya fanini o'rganuvchilar ham ingliz tilida ravon so'zlashish, ushbu sohaga tegishli atamalarni, iboralarni hamda texnika nomlarini ushbu tilda og'zaki muloqotda qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishni istaydilar. Buning samarasi o'laroq, talabalar turli xil ingliz tili kurslariga jalb etilmoqdalar.

XXI asrda biologiya fani nafaqat an'anaviy laboratoriya ishlari bilan, balki keng ko'lamli xalqaro ilmiy hamkorlik va axborot almashinuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda ingliz tili global ilmiy aloqa vositasi sifatida yetakchi o'rinni egallaydi (Ammon, 2001; Tardy, 2004). Shunga qaramay, ko'plab talabalar va yosh tadqiqotchilar murakkab biologik muammolarni ingliz tilida muhokama qilishda yoki atamalarni to'g'ri qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda (Ferguson, 2007; Flowerdew, 2008).

Muammoli muloqot (problem-based communication) - bu o'rganilayotgan mavzuga doir muayyan vaziyatlar asosida fikr almashish, tanqidiy fikrlash va takliflar bildirishga asoslangan o'quv jarayoni shaklidir. Ushbu tezis biologik kontekstda muammoli muloqotni ingliz tilida shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Muammoli muloqot (problem-based communication) — bu o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini, tahliliy yondashuvini va muloqotga tayyorligini rivojlantiradigan metodik yondashuv bo'lib, u ko'pincha Problem-Based Learning (PBL) muammoli vazifalar asosida o'qitish modeli asosida amalga oshiriladi. PBL(muammoli vazifalar asosida o'qitish) biologik kontekstda o'quvchilarni real hayotdagi muammolarni tahlil qilish, ingliz tilida savollar berish, fikr almashish va muqobil echimlar taklif qilishga undaydi (Hmelo-Silver, 2004).

Biologiya fanida ko'plab murakkab atamalar, qisqartmalar va klassifikatsiyalar mavjud bo'lib, ularni ingliz tilida to'g'ri ishlatish malakasi alohida e'tibor talab qiladi. Terminlar ustida ishlash va ularni kontekstda qo'llash ingliz tilidagi muloqot samaradorligini oshiradi. Biologiyada ko'plab terminlar, qisqartmalar va klassifikatsiyalar mavjud bo'lib, ularning ingliz tilidagi mazmunini tushunish va kontekstda to'g'ri qo'llash muloqot samaradorligini oshiradi (Snow, 2010). Shu sababli terminologik kompetensiyani shakllantirish — biologik ingliz tilida og'zaki va yozma muloqotni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi (Nation & Newton, 1997).

PBL (muammoli vazifalar asosida o'qitish) yondashuvi talabalarni faqat bilim olish emas, balki muloqot qilish, fikr bildirish va hamkorlikda qaror qabul qilishga yo'naltiradi. Bu jarayonda ingliz tili shunchaki o'rganilayotgan til emas, balki ilmiy muhokama vositasi sifatida foydalaniladi (Barrows, 1986; Savery, 2006). Aynan shuning uchun biologiya fanini ingliz tili bilan integratsiyalash orqali muammoli muloqot ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiradi va talabalarni xalqaro ilmiy maydonga tayyorlaydi.

Quyidagi amaliy metodlar biologik kontekstda ingliz tilida muammoli muloqotni rivojlantirishda foydalidir:

- Case study – Biologik holatlar asosida tahlil qilish va bahs-munozara yuritish.
- Role-play – Ilmiy konferensiya, laboratoriya muhokamasi, yoki intervyu shaklida rolli o'yinlar tashkil etish.
- Debate – Ikkita qarama-qarshi biologik qarash yoki nazariyani ingliz tilida bahs etish.
- Problem-solving sessions – Genetik, ekologik yoki molekulyar biologiyaga oid real masalalarni ingliz tilida hal qilish.

Case study. Ushbu metod real yoki o'ylab topilgan, lekin haqiqiy hayotga yaqin muammo yoki holat asosida talabalarga savol berish, muhokama qilish va yechim topishga undovchi metoddir. Biologiyada bu kasalliklar, ekologik muammolar, genetik hodisalar, tajriba natijalari va ilmiy muammolar asosida tashkil qilinadi. Bu orqali talabalar biologik kontentni ingliz tilida anglaydi, ilmiy savollar beradi, ularga javob beradi, tanqidiy fikrlaydi, til ko'nikmalarini (o'qish, yozish, gapirish, tinglash) rivojlantiradi, ilmiy atamalarni kontekstda qo'llaydi.

Role-play. Bunda talabalar muayyan vaziyatga mos rollarni o'zlashtirib, shu rolda ingliz tilida muloqot qilishni mashq qiladilar. Bunda ular hayotga yaqin, ilmiy yoki kasbiy kontekstdagi ssenariy asosida harakat qilishadi. Biologiya fanida bu tadqiqotchi, laboratoriya texnigi, shifokor-genetik, ekolog, konferensiya ishtirokchisi, talaba-prezentator, bemorga maslahat beruvchi mutaxassis kabi ko'rinishlarda amaliyotda tilni sinab ko'rishlari mumkin. Bu usul orqali esa biologik kontekstda real kasbiy muloqotga o'xshash sharoit yaratish, ilmiy ingliz tilini faol va erkin qo'llash, og'zaki nutq va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish, til orqali ilmiy fikr bildirish, savol berish, asoslash va taklif qilish malakasini shakllantirish.

Debate. Bu metod ikki yoki undan ortiq guruhning ma'lum bir mavzu bo'yicha qarama-qarshi pozitsiyalarni ingliz tilida asoslab himoya qilishlari orqali olib boriladigan muloqot shaklidir. Biologik kontekstda bu - ilmiy masalalarni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish imkonini beradi. Bu amaliy metod orqali talabalarda ilmiy fikr yuritish, asoslash va inkor qilish ko'nikmalarini rivojlantirish, biologik terminlarni interaktiv muhitda ingliz tilida ishlatishni o'rgatish, tanqidiy fikrlash, loyihaviy tafakkur, va ijodiy yondashuvni shakllantirish, ilmiy atrof-muhitda bahslashish madaniyatini singdirish kabi samarali usullar yotadi.

Problem-solving sessions. Bu talabalarning real yoki o'xshash ilmiy muammolarni tahlil qilish, yechim topish, va bu jarayonda ingliz tilidan faol foydalanishini talab qiluvchi samarali usullardan biridir. Bu usul orqali biologik mavzuda tanqidiy va tizimli fikrlashni ingliz tilida rivojlantirish, ilmiy muammolarni hal qilishda ingliz tilidan foydalanish, talabalarni muloqotga, fikr almashishga va birgalikda ishlashga undash, biologik terminlar, ibora va gap tuzilmalarini real kontekstda qo'llashga amaliy yordam beradi.

Ba'zi O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalarida olib borilgan tajribalarga ko'ra, biologik muammolar asosida tuzilgan ingliz tilidagi mashg'ulotlar talabalar fikrlashini faollashtirgan, ularning fanda o'z fikrini bildirish, savol berish va asoslangan takliflar keltirish malakalarini oshirgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, biologik fanlar kontekstida ingliz tilida muammoli muloqotni rivojlantirish o'qituvchidan ham, talabalardan ham yangicha yondashuvni talab qiladi. Bu nafaqat til o'rganishga, balki ilmiy tafakkurni rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Muammoli vaziyatlar asosida olib boriladigan inglizcha muloqot biologik fanlarni chuqurroq o'zlashtirish, ilmiy-ijodiy salohiyatni rivojlantirish, va eng muhimi, xalqaro miqyosda faol ishtirok etishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. **Ammon, U.** (2001). *The Dominance of English as a Language of Science: Effects on Other Languages and Language Communities*. Mouton de Gruyter.
2. **Tardy, C. M.** (2004). The role of English in scientific communication: Lingua franca or Tyrannosaurus rex? *Journal of English for Academic Purposes*, 3(3), 247–269.
3. **Ferguson, G.** (2007). The global spread of English, scientific communication and ESP: Questions of equity, access and domain loss. *Iberica*, 13, 7–38.

4. **Flowerdew, J.** (2008). Scholarly writers who use English as an additional language: What can Goffman's "Stigma" tell us? *Journal of English for Academic Purposes*, 7(2), 77–86.
5. **Hmelo-Silver, C. E.** (2004). Problem-Based Learning: What and How Do Students Learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235–266.
6. **Barrows, H. S.** (1986). A taxonomy of problem-based learning methods. *Medical Education*, 20(6), 481–486.
7. **Savery, J. R.** (2006). Overview of Problem-based Learning: Definitions and Distinctions. *Interdisciplinary Journal of Problem-based Learning*, 1(1), 9–20.
8. **Snow, M. A.** (2010). Academic literacy for English language learners. In: P. L. Carrell (Ed.), *Interactive Approaches to Second Language Reading*. Cambridge University Press.
9. **Nation, I. S. P., & Newton, J.** (1997). *Teaching ESL/EFL Listening and Speaking*. Routledge.
10. **Abdisheribov, S., Yo'Ldosheva, M., & Jumayeva, M.** (2022). Implementing creative writing in English language teaching classrooms. *Science and innovation*, 1(B8), 1343-1347.
11. **Ibroximjon, M., & Mukarrama, J.** (2022). Hozirgi kun yoshlarini ijtimoiy munosabatlarga kirishishida chet tillarini o'rgatilishi va uning ahamiyati. *Involta Scientific Journal*, 1 (5), 178-182.
12. **Jumayeva, M. B.** (2025). Use of educational methods in pedagogy. *Икро журнал*, 14(02), 168-174.
13. **Mukarrama, J., Jasurbek, A., & Kamoliddin, S.** (2022). Teaching listening skills in English. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3 (06), 252-255.
14. **Umidjon, G., & Mukarrama, J.** (2022). Used in lesson processes efficiency of interactive methods. *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*, 161-162.